

 <https://doi.org/10.63241/20261S9akhv>

UO‘T:632.3 632.4

KUZGI BUG‘DOYDA SARIQ VA QO‘NG‘IR ZANG, UN-SHUDRING KASALLIGIGA AVAKSS EM.K. PREPARATINING BIOLOGIK SAMARADORLIGI

Durshimbetov Ispandiyar Kerimbergenovich 

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“O‘simliklar himoyasi va karantini” kafedra dotsenti q.x.f.d (PhD)

Shamuratova Nasima Genjemuratovna 

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy filiali q.x.f.f.d., katta ilmiy xodimi

Jumamuratov Ulug‘bek G‘aniybay o‘g‘li 

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy filiali katta ilmiy xodimi

Rozimova Amangul Pulatovna 

O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi mintaqaviy filiali kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Kuzgi bug‘doyda uchraydigan sariq va qo‘ng‘ir zang, unshudring kasalliklariga qarshi Agro Prop 50% EC preparatining biologik samaradorligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va natijalar to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: Sariq va qo‘ng‘ir zang, unshudring kasalliklariga qarshi fungitsidlarni sinash.

Аннотация: Результаты исследований и биологической эффективности препарата Агро Проп 50% ЕС против желтой и бурой ржавчины, а также мучнистой росы озимой пшеницы.

Ключевые слова: Испытание фунгицидов против желтой и бурой ржавчины, а также мучнистой росы.

Abstract: On the results of studies and results of biological efficacy of Agro Prop 50% EC against yellow and brown rust, powdery mildew diseases in winter wheat.

Keywords: Testing of fungicides against yellow and brown rust, powdery mildew diseases.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

KIRISH

Hozirgi vaqtda dunyoning qishloq xojaligida muhim rol o'ynaydigan yetakchi davlatlarda bug'doy ekinlarida sariq va qo'ng'ir zang, un shudring kasalliklari keng tarqalgan holda hosilga jiddiy zarar yetkazmoqda. Bug'doy kasalliklarini samarali boshqarish maqsadida yangi vositalarni qidirish va ularni tajribadan o'tkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. O'simlik kasalliklariga qarshi o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirilgan profilaktika choralarini hamda agrotexnik usullar patogenlar sonini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq kasalliklarning ommaviy tarqalishi va kuchli avj olishida bu choralar yetarli bo'lmay qoladi. Shu sababli, O'zbekistonda ruxsat etilgan fungitsid turlarini ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish bug'doy yetishtirish jarayonida asosiy vazifalardan biri sifatida ko'riladi. Sariq va qo'ng'ir zang, un shudring kasalliklari bug'doy ekinlarida keng uchraydigan kasalliklar hisoblanadi. Nam va harorati qulay yillarda bu kasallik ayniqsa kuchli rivojlanib, bug'doy o'simliklarining hosildorligini 10-40% ga tushirishi va don sifatini pasaytirishi mumkin. Donli ekinlar orasida eng ko'p tarqalgan kasallik bo'lib, ayniqsa so'nggi yillarda don yetishtirishning intensivlashuvi natijasida kuchaygan va mamlakatning turli mintaqalarida hosildorlik va uning sifatini sezilarli darajada kamaytirishi ehtimoli mavjud. Navlar va yilning ob-havo sharoitlariga qarab, zarar darajasi 14% dan 40% gacha yetishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Qoraqalpog'iston sharoitida kuzgi bug'doy kasalliklariga qarshi yangi tizimli fungitsid "Avakss" em.k. ning samaradorligini baholash va uni amaliyotda qo'llash uchun eng maqbul sarf normalarini aniqlash.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tajriba sinovlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus tumanidagi «Nurdawlet-Azizbek» fermer xo'jaligida bug'doy dalalari sharoitida o'tkazildi. Avakss, em.k. fungitsidini biologik samaradorligini aniqlash bo'yicha dala sinovlari Dala tajribalari Davlat Kimyo komissiyasi (1994 y), tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyat asosida olib borildi.

Kasallikning tarqalishi quyidagi formula asosida aniqlandi.

$$P = \frac{n \cdot 100}{N}$$

P: kasallikning tarqalishi.

n: kasallangan o'simliklar soni (dona);

N: umumiy o'simliklar soni (dona).

Kasallikning bargni zararlash darajasi quyidagi shkala bo'yicha hisoblanadi:

- 0 – sog'lom barglar;
- 1 ball – barg yuzasining 10% gacha qismi zararlangan;
- 2 ball – barg yuzasining 11-25% qismi zararlangan;



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

- 3 ball – barg yuzasining 26–50% qismi zararlangan;
- 4 ball – barg yuzasining 50% dan ortiq qismi zararlangan.

$$R = \frac{\sum(a \cdot b)}{N \cdot K} \cdot 100$$

R-kasallikning rivojlanishi

$\sum(a \cdot b)$: o'simliklar soni (a) va kasallik darajasi ballining (b) ko'paytmasi;

N: kasal o'simliklar soni (dona);

K: shkaladagi eng yuqori ball.

$$Bs = \frac{Rn - Rt}{Rn} \cdot 100$$

Bs-Biologik samaradorlik.

Rn: nazorat variantida kasallik rivojlanishi (%);

Rt: tajriba variantida kasallik rivojlanishi (%).

Tajribalar quydagi tizimda olib borildi.

№	Tajriba variantlar	Norma rasxod l/ga
1.	Avakss, em.k.	0,4
2.	Propishans Super em.k. (andoza)	0,5
3.	Nazorat	-

NATIJALAR VA MUNOZARA

Kuzgi bug'doy ekinida Avakss, em.k. fungitsidining sariq, qo'ng'ir zang va un shudring kasalliklariga qarshi biologik samaradorligi o'rganildi.

Sariq zang kasalligiga qarshi samaradorlik Avakss, em.k. (0,4 l/ga): Kasallik tarqalishi 5,5%, rivojlanishi 0,8%, biologik samaradorligi 90,6% ni tashkil etdi. Propishans Super, em.k. (0,5 l/ga): Kasallik tarqalishi 6,1%, rivojlanishi 0,9%, biologik samaradorligi 89,5% ni tashkil etdi. Nazorat varianti: Kasallik tarqalishi 22,3%, rivojlanishi 8,6% ni tashkil etdi.

Qo'ng'ir zang kasalligiga qarshi samaradorlik Avakss, em.k. (0,4 l/ga): Kasallik tarqalishi 4,4%, rivojlanishi 0,6%, biologik samaradorligi 92,8% ni tashkil etdi. Propishans Super, em.k. (0,5 l/ga): Kasallik tarqalishi 4,9%, rivojlanishi 0,8%, biologik samaradorligi 90,4% ni tashkil etdi. Nazorat varianti: Kasallik tarqalishi 16,3%, rivojlanishi 8,4% ni tashkil etdi.

Un shudring kasalligiga qarshi samaradorlik Avakss, em.k. (0,4 l/ga): Kasallik tarqalishi 3,8%, rivojlanishi 0,7%, biologik samaradorligi 91,1% ni tashkil etdi. Propishans Super, em.k. (0,5 l/ga): Kasallik tarqalishi 4,1%, rivojlanishi 0,9%, biologik samaradorligi 88,6% ni tashkil etdi. Nazorat varianti: Kasallik tarqalishi 18,7%, rivojlanishi 7,9% ni tashkil etdi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida bug'doy ekinida sariq zang kasalligiga Avakss, em.k. (0,4 l/ga) sarf me'yorda qo'llanilganda 90,6% biologik

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK-LAR KARANTINI

samaradorlikni tashkil etdi. Qo'ng'ir zang kasalligiga Avakss, em.k. (0,4 l/ga) sarf me'yorda qo'llanilganda 92,8% biologik samaradorlikni tashkil etdi. Un shudring kasalligiga Avakss, em.k. (0,4 l/ga) sarf me'yorda qo'llanilganda 91,1% biologik samaradorlikni tashkil etdi.

2. Avakss, em.k. (0,4 l/ga) sarf me'yorda fungusidlari qo'llanilganda ekinga fitotoksik ta'sir ko'rsatmadi.

ADABIYOTLAR

1. Amanov A. Ilmiy va amaliy izlanishlar. – Toshkent: “Tafakkur qanoti”, 2019. – 156-157 b.
2. Amanov A.A., Siddiqov R.E. Bug'doyning sariq, qo'ng'ir va qorakuya kasalliklari hamda ularga qarshi kurash omillari. // *Paxtachilik va donchilik to'plami*. – Toshkent, 2000.
3. Hasanov B.O., Ochilov R.O. Bug'doyning zang kasalliklarini aniqlash, hisobga olish va ularga qarshi kurash choralarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar. – Toshkent: O'zR Qishloq xo'jaligi vazirligi nashriyoti, 2010.
4. Методические указания по испытанию инсектицидов, акарицидов, БАВ и фунгицидов. / Отв. ред. Ходжаев Ш.Т. – Ташкент: O'zO'NQITI, 2004. – 78 с.
5. To'raqulov X.S., Baboev S.K., Gulmurodov R.A. Bug'doyning zang kasalliklari. – Toshkent: “Navro'z” nashriyoti, 2015.